

O‘smirlik davridagi o‘quvchilar tafakkurini o‘ziga hos xususiyatlari

Ismoilova Asilpashsha Rojabovna.
URDU. “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasi o‘qituvchisi
+99890-906-30-41

asilpashshaismoilova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘smirlik davridagi o‘quvchilar tafakkurini o‘ziga hos jihatlari, xususan, o‘smirlik davrida intellektni namoyon bo‘lish xususiyatlari, bilimlarni o‘zlashtirish boshqichlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘smir, ta‘lim jarayoni, intellekt, tafakkur, bilim, ko‘nikma va malaka, amaliy tafakkur, temperament, aql tanqidiyligi.

Ta‘lim tizimi yoshlarga faqatgina bilim, ko‘nikma va malaka berish bilan kifoyalanmay, balki ularning komil inson qilib yetishtirish kabi buyuk vazifalarni bajaradi. O‘quvchilar o‘qib, o‘quv fanlarining mazmunini o‘zlashtira borib, ob‘ektiv olamni bilib oladilar. Ular ilmiy bilimlarning hammasini emas, balki ularning «fan asoslari» deb ataladigan bir qisminigina o‘zlashtirib oladilar. Ma‘lumki, odam muayyan bilim, ko‘nikma, malaka hosil qilish uchun xulq-atvor shakllarini ham o‘rganib olishi uchun, ijtimoiy tajribalardan tashkil topgan malakalarning asosiy hajmini egallab olish uchun u o‘quv-tarbiya tizimining turli sohalari bilan mashg‘ul bo‘lmog‘i va bu ishlarga jalb etilmog‘i kerak. Bunday hodisalarda tegishli bir mazmuni o‘zlashtirib olish bir-biri bilan aloqador bo‘lgan ikki jarayon: ta‘lim olish (yoki o‘qish) va o‘qitish jarayonining natijasi sifatida zikr etiladi. Fan-texnika taraqqiyoti hamda uzluksiz ta‘lim olish g‘oyasi amalga oshirilayotgan bir sharoitda ta‘lim inson sotsial faolligining predmetli faoliyatning sub‘ekti hamda ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida o‘zini doimiy ravishda kamolga yetkazishga qaratilgan faol sotsial faoliyatning mustaqil shakli sifatida ko‘proq ahamiyat kasb eta boradi.

Ta‘limda ko‘proq so‘zlar-tushunchalar shaklida ifodalangan umumlashtirilgan bilimlar o‘qituvchi tomonidan bayon etiladi, o‘quvchilar tomonidan esa bu bilimlar



idrok qilinadi, o‘zlashtiriladi, real narsalarni idrok qilish esa (narsalarning o‘zi, maketi, rasmi va x.) bunda yordamchi rol o‘ynaydi.

O‘quvchilar ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni egallab oladilar. Bilimlarda ob’ektiv olam umumlashtirilgan xolda aks ettiriladi. Bilimlarni o‘zlashtirish faktlar, tushunchalar va qonuniyatlarni o‘rganishni nazarda tutadi.

O‘quvchining bilimlari to‘la bo‘lishi, uning bilimlar tizimini egallab olishi juda muhimdir, bu bilimlar tizimida faktik materialni bilish uning mantiqiy jihatdan to‘g‘ri deb topilgan tuzilishi va umumlashtirilishi bilan qo‘shilib ketadi.

O‘smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo‘la boshlaydi. Chunki, bu davrdagi o‘quvchilar atrof-olamdagi bog‘lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o‘smirning bilishga bo‘lgan qiziqishida keskin rivojlanish sodir bo‘ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi o‘smir tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. Buning ta’sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarish qobiliyati paydo bo‘ladi.

Maktabda o‘qitiladigan fanlar o‘smir uchun o‘z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo‘lib xizmat qiladi. J.Piajening ta’kidlashicha, “Ijtimoiy hayot uch narsaning ta’siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi». Bu borada o‘zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o‘z-o‘zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi .

11-12 yoshdan boshlab o‘smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O‘smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o‘rgana boshlaydi. O‘smir tafakkurining nazariy darajaga qanchalik tez ko‘tarila olishi, o‘quv materiallarini tez va chuqur egallashi, uning intellektini ham rivojlanishini belgilab beradi. O‘smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o‘ta qiziquvchanlik hamda atrof-dagilarga o‘z layoqatlarini namoyish etish, shuningdek, ularda yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. O‘smirning kattalarga beradigan savollari mazmunli, mulohazali va aynan o‘sha masala doirasida bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar turli farazlarni keltira oladilar, taxminiy fikr yuritib, tadqiqot o‘tkaza oladilar, hamda ma’lum bir masala bo‘yicha muqobil variantlarni taqqoslay oladilar. O‘smir tafakkuri ko‘pincha umumlashtirishga moyil bo‘ladi. Respublikamizning bozor iqtisodiyoti sharoitiga o‘tishida kishilardagi amaliy tafakkurning ahamiyati oshmoqda. Amaliy tafakkur tizimiga quyidagi aqliy sifatlar kiradi:



- tadbirkorlik, tejamkorlik, hisob-kitoblik, yuzaga kelgan muammolarni tez echa olishlik va boshqa shu kabi sifatlar mavjud bo‘lgan taqdirdagina amaliy tafakkurni rivojlangan deb hisoblash mumkin. Bu sifatlarni 1-sinfdanoq rivojlantirish borish nihoyatda muhim.

O‘smirlik davrida ishbilarmonlik sifatini, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarishini yo‘lga qo‘yishi, umumiy foydali tadbirkorlik ishlarida ishtirok etishi orqali rivojlantirish mumkin. Bu borada o‘quvchi ijrochi rolda emas, balki boshqaruvchi, mustaqil yo‘l tanlovchi va tadbirkorlik munosabatlarida o‘zi ishtirokchi bo‘lgan taqdirdagina rivojlanish amalga oshishi mumkin. Bu yoshda tadbirkorlikni rivojlantirishda ko‘proq mustaqillikning berilishi o‘smir amaliy tafakkurining rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘smir yoshdagi bolalarda tejamkorlikni rivojlantirish aqlning boshqa sifatlariga nisbatan osonroq kechadi, buni ko‘proq ularni qiziqtiradigan narsalarga mustaqil ravishda hisob-kitob qilib borishga yo‘llash orqali amalga oshirish mumkin, o‘smirlarda yuzaga kelgan muammolarni tez va operativ holda echish malakasini shakllantirish birmuncha qiyinroq kechadi. Albatta, bu bolaning temperamentiga ham bog‘liq. Barcha o‘smirlarni ham tez yo‘llab, tez harakat qilishga o‘rgatish mushkul, lekin ularni biror muammo yuzaga kelishi bilan orqaga chekinmay, zudlik bilan muammoni echishning umumiy qoidalariga o‘rgatib borish kerak.

O‘smirlik davrida intellektning yuqori darajada rivojlangan bo‘lishi qimmatli va obro‘li hisoblanadi. O‘smir shaxsida va uning bilishga bo‘lgan qiziqishidagi o‘zgarishlar o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o‘smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, o‘zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkurni rivojlanishi bilan belgilanadi.

Ta’lim natijalari to‘grisida gapirganda, konkret o‘quv vaziyati sharoitida kishi egallab oladigan bilimlar, ko‘nikma va malakalarnigina sanab o‘tish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Bunday xol shu bilan izohlanadiki, bu yerda o‘quv faoliyatining sub’ekti sifatida muayyan psixik xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchining yaxlit bir shaxsi, butun bir tizim yuzaga keladi.

Ma’lumki, u yoki bu tizimga har qanday yo‘l bilan ta’sir ko‘rsatilishi butun sistemaning holatida o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun o‘quv faoliyati natijasida kishida ilgari mavjud bo‘lgan bilimlarga, tevarak atrofdagi

xayotni inikos etish usullariga uning xarakter dasturlariga qo‘shimcha tarzda, ta’limning boshqa har qanday faktlari vujudga kelganda sodir bo‘lgani singari shaxsning ongida hamda uning psixik xususiyatlari mazmunida ham o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keladi. Ana shu xol individning uzluksiz ta’lim olish jarayonini shaxsning tarkib topishida, uning ahloqiy qiyofasi va g‘oyaviy e’tiqodi shakllanishida muhim omil deb qarash uchun asos beradi.

Hozirgi vaqtda shu narsa isbot qilinganki, egallab olingan bilimlarning shaxsga qay darajada ta’sir ko‘rsatishi usha bilimlar qanday o‘zlashtirib olinganiga bog‘liq ekan. Bilimlar turli darajada o‘zlashtirib olingan bo‘lishi mumkin.

Bu esa: a) xodisa to‘g‘risida yangi olingan axborotni ilgari mavjud bo‘lgan shu xildagi axborotga yaqinlashtirish;

b) ilgari o‘zlashtirilgan axborotni qayta tiklashga tayangan xolda tayangan xolda voqea–xodisani bayon etish;

v) xodisaning mohiyatini belgilab beradigan eng muhim xususiyatlar, aloqa va munosabatlar o‘z aksini topgan tegishli shunga o‘xshash xodisaning kishi ongida qayta tiklanadigan obrazi (yoki modeli) dan foydalanilgan xolda sodir bo‘layotgan voqealarni izohlab berish;

g) predmet va xodisalarni faoliyat vazifalariga muvofiq ravishda qaytadan o‘zgartirib borishni amalga oshirish va buning uchun shu maqsadga ilgari egallangan bilimlarni rivojlantirib borish imkonini beradi. Masalan, materiallarning plastik xususiyatga ega ekanligi xodisasi tugrisidagi bilimlar, dastlabki bosqichda egallab olinganligi tufayli plastik materialni plastik bo‘lmagan materialdan farqlash imkonini beradi.

Ikkinchi bosqichda–plastik materiallarning bayonini berish mumkin.

Uchinchi bosqichda – plastiklik sabablarini izoxlash, turtinchi bosqichda – o‘sha materialning ichki tuzilishini zarur tarzda o‘zgartirish asosida materialning plastikligini oshirishga imkon beradi.

Birinchi bosqichda o‘zlashtirib olingan bilimlar tanishtiruvchi bilimlar, ikkinchi bosqichda egallab olingan bilimlar nusxa ko‘chiruvchi bilimlar, uchinchi bosqichdagi bilimlar – ko‘nikma bilimlari, to‘rtinchi bosqichdagi bilimlar – transformatsiya bilimlari deyiladi.

O‘zlashtirib olingan bilimlarning funksional imkoniyatlari o‘rtasidagi farqlar materialning xususiyatiga qarab, o‘quvchining o‘quv vaziyatidagi pozitsiyasiga



qarab – o‘quvchida xayotiy masalalarni bayon etish, izoxlash va ularni o‘zgartirish usullari qay darajada shakllanganligiga qarab belgilanadi.

O‘quv jarayonida xosil qilingan bilimlardan tashqari o‘quvchi shaxsini shakllantirishga o‘quv faoliyatining o‘zi xam ta’sir ko‘rsatadi, chunki bu faoliyatni o‘zlashtirish va amalga oshirish xam psixikaning muayyan darajada rivojlangan bo‘lishini taqozo etadi. O‘quv faoliyati jarayonida o‘quvchi o‘qituvchi rahbarligida o‘quv faoliyatining barcha komponentlarini egallab oladi. Bu o‘quvchining o‘quv sub’ekti sifatida qaror topishiga shart-sharoit yaratadi .

O‘smir yoshidagi o‘quvchilar nazariy tafakkurining shakllanishida o‘qituvchining keng qamrovli bilimga ega bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarning fanga qiziqishi ortishini kuchaytiradi, fan bo‘yicha to‘garak va fakultativ mashg‘ulotlarga qatnashish istagini paydo qiladi. Shuningdek, o‘quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda, o‘qituvchilar, sinf rahbarlarining siymolari muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar o‘smirlarda o‘rganilayotgan narsa va xodisalarning ob’ektivligi, xaqqoniyligi, to‘g‘riligiga ishonch hosil qilishlari, ulardan qanoatlanishlari va ularni isbotlashga o‘rgatib borishlari zarur. Ikkinchidan, fan o‘qituvchilari o‘z o‘quvchilarini narsa va xodisalar to‘g‘rsida original fikr yuritishga yo‘llashlari kerak. Uchinchidan, o‘quvchilarning mashg‘ulotlarda qo‘llanaverib, ma’naviy eskirgan bir qolipdagi so‘zlardan, iboralardan foydalanishlariga yo‘l qo‘ymasliklari kerak. To‘rtinchidan, fan o‘qituvchilari o‘smir yigit va qizlarga bilimlarini amaliyotga tadbiiq qilishni o‘rgatishlari shart, buning uchun ularda amaliy malakalarni shakllantirishga harakat qilishlari lozim.

O‘smir yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan o‘quv fanlariga tanlab munosabatda bo‘lish xususiyatlari ularning kelgusi hayot yo‘llarini qay darajada aniq tanlab olgan bo‘lishlariga bog‘liq, ya’ni kasb-hunar kollejidan keyin qaysi yo‘nalish bo‘yicha, ta’limning qaysi shaklida davom ettirish yoki ishlab chiqarishning qaysi sohasida ishlashni afzal ko‘rishlari bilan belgilanadi.

Aql tanqidiyligi o‘smir umumiy rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘rganilayotgan xodisa to‘g‘risida xukm va xulosa chiqarish, tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘smir tafakkuri sifatini uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi tashkil qiladi.

O‘smir qobiliyati, layoqati va iste‘dodi ta‘lim jarayonida, mehnat faoliyatida rivojlanadi. Uning qanchalik iste‘dodli ekanligini aniqlash uchun ziyrakligi, jiddiy sinovga shayligi, mehnatga moyilligi, intilishi, psixik tayyorgarligi, mantiqiy fikrashning tezligi, izchilligi, samaradorligiga e‘tibor berish kerak.

O‘smir biror xodisani asoslagan, isbotlagan paytlarida uning muhim xususiyatlariga, birlamchi jihatlariga sinchkovlik bilan qaray boshlaydilar. Darsliklarni o‘qigan va o‘qituvchilardan eshitgan axborotlar, xabarlar va ma‘lumotlarga ishonish va ulardan qanoat hosil qilish uchun faol harakat qiladilar.

Hozirgi davrda intellekt omili ta‘lim jarayonining muhim omiliga aylanib borayotganligi o‘qishga munosabatning ijobiy xususiyat kasb etishini ta‘minlashni taqozo qilmoqda. Kelajakdagi ijtimoiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi omil - bu o‘qimishli, savodxon, iqtidorli, aqlan barkamol yoshlarni shakllantirishdir. O‘quvchi yoshlarning o‘qishga munosabati ularning qiziqishlarida, motiv va motivatsiyalarida o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Ana shu boisdan o‘quv motivlari va motivatsiyalarini tadqiqot qilish bo‘lganligi uchun dolzarb muammoga aylanib qoldi.

Xulosa qilib aytganda, ta‘lim tizimini yuksak darajaga ko‘tarish uchun o‘quvchilarda anglanilgan, yuqori ko‘rsatkichli, indikator xususiyatli o‘quv motivini shakllantirish davr talabidir. Zero, faoliyat va xulq-atvor motivsiz, motivatsiyasiz faollikka, muayyan yo‘nalishga, o‘ziga xos mahsuldorlikka, muvaffaqiyatga ega bo‘lmaydi. Shuning uchun turli yoshdagi saboq oluvchilarni motiv, motivatsiya mohiyati bilan tanishtirish mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini zaruriy sharti hisoblanadi.. Bizningcha, o‘quv faoliyatining faolligi, ijodiyliigi, nostandartligi, samaradorligi, bilimlarning puxtaligi, mantiqiyliigi, izchilligi o‘smirlarning motiv va motivatsiya bilan qurollanganligiga bog‘liq, ular qanchalik anglanilgan, maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lsa, mazkur faoliyat shunchalik muvaffaqiyatli amalga oshadi, ularni tatbiq etish osonroq kechadi. Shaxsning faoliyati, xatti-harakati, xulq-atvori muvaffaqiyati ko‘p jihatdan yo‘naltirilganligiga bog‘liq. O‘quv faoliyatini samarali bo‘lishi ta‘minlash uchun psixotreninglardan foydalanish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Гарнец О.Н. Развитие гибкости мыслительных действий у школьников. Диссер. на соис... канд. психол. наук. Киев. 1979.
2. Гальперин П.Я. Психология мышления и учение о поэтапном формировании умственных действий. // Исследование мышления в советской психологии. М., 1966. С. 236-277.
3. Гуревич К.М., Горбачева Е.И. Умственное развитие школьников: критерии и нормативы. М., 1992.
4. Джемс У. Мышление // Хрестоматия по общей психологии. Психология мышления. / Под ред. Ю. Гиппенрейтер, В.В. Петухова. М., 1981.
5. Djumaniyazova, M. X. (2023). Yoshlar tarbiyasida qadriyatlarning roli. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(3), 16-20.
6. Ismoilova Asilpashsha Rojabovna. (2023). Ta'lim jarayonida o'smirlar tafakkurining rivojlanish xususiyatlari. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 36-41. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/1165>
7. Z.I. Atamuratova. (2023). O'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligiga hissiy zo'riqlashning ta'siri muammosi va uning psixokorreksiyasi. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(3), 82-85. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/1560>
8. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. Избр. психол. произв. Т. 2. М., 1983. с. 94-231.
9. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. Т. 1. М., 1989

Research Science and
Innovation House